

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi



Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi




Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti



Taraqqiyot strategiyasi markazi

## TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



17-aprel kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida “O'zbekiston – 2030” strategiyasiga bag'ishlab o'tkazilayotgan

### **“O'ZBEKISTON – 2030 STRATEGIYASI: INSON SALOHIYATINI RO'YOBGA CHIQARISH IMKONIYATLARI” mavzusida RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**



Toshkent – 2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**“O'ZBEKISTON – 2030 STRATEGIYASI: INSON SALOHIYATINI  
RO'YOBGA CHIQARISH IMKONIYATLARI”**

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari*

**TO'PLAMI**

17 Aprel 2024 yil

Toshkent – 2024

## **Taqrizchilar:**

Shirinov Djaxongir Djabbarovich – Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo‘mita raisi

Jo’raqulov Furqat Noryigitovich – DXX Akademiyasi professori, siyosiy fanlar doktori, DSc,

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi: inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami – T.: Toшkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2024. – 778 b.

Ushbu to‘plamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-sон Farmoni ijrosini ta‘minlash yuzasidan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024 yil 18-yanvardagi 16-son “2024-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g’risida”gi buyrug‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida 2024 yil 17 aprel kuni “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi: inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Konferentsiya materiallari to‘plamiga Yangi O‘zbekistonni barpo etish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta‘minlash maqsadida yurtimizda olib borilayothgan islohotlar va ularning natijalarini yoritish, ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etish va ilmiy asoslashning dolzarb masalalari sohalariga oid ilmiy maqolalar kiritilgan.

## **Mas’ul muharrir**

T.Z.Teshabayev – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d., prof.

**Tahrir hay’ati a’zolari:** s.f.d. DSc S.S.Otamuratov, t.f.d., prof. N.X.Oblomuradov, s.f.d., DSc T.Norboyev, t.f.d., DSc, prof. O.R.Rashidov, f.f.n., dots.M.N.Primov, f.f.f.d. PhD T.R.Safarova, t.f.f.d. PhD I.B.Baxodirov, dots. A.Sultanova, dots.v.b.N.T.Parpiyeva, o’q.T.T.Aliyev

Matnlarda foydalanilgan manbalar va malumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir.

## SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA RESURSLARDAN FOYDALANISHNING AXLOQIY ME'YORLARI

Feruza Sadullaevna Atamuratova

Toshkent tibbiyat akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrasи dotsenti,  
falsafa fanlari nomzodi

### ANNOTASIYA

Ushbu maqola bugungi kunda sog'liqni saqlash tizimida mavjud bo'lgan resurslardan oqilona foydalanishni muvofiqlashtirish masalasi bag'ishlangan bo'lib, unda sog'liqni saqlash tizimidagi resurslarni adolat tamoyiliga asosida taqsimlash zarurligi tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** sog'liq, tizim, resurs, axloq, shifokor, bemor, tibbiyat, ehtiyoj.

Tibbiyat – eng sharaflı kasblardan biri hisoblanadi. "Kasb" atamasi ikkita o'xshash, ammo turli xil ma'nolarga ega: birinchidan, u yuqori axloqiy me'yorlar, bilim va ko'nikmalar to'plami va yuqori darajadagi mustaqillikka ega bo'lgan mashg'ulot bo'lsa; ikkinchidan, bir kasbga aloqador shaxslar jamiyatini ham tushunishimiz mumkin. Ya'ni, "tibbiyat kasbi" atamasi ham tibbiy amaliyotga, ham umuman barcha tibbiyat hodimlariga tegishli bo'lishi mumkin.

Tibbiy professionallik nafaqat shifokor va bemor o'rtasidagi munosabatlarni, balki hamkasblar va barcha sog'liqni saqlash xodimlari o'rtasidagi munosabatlarni, shuningdek, tibbiyat xodimlarining jamiyat bilan munosabatlarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu munosabatlarni biz "ijtimoiy shartnoma" sifatida tavsiflanishimiz mumkin. Uning shartlariga ko'ra jamiyat tibbiyat kasbiga ba'zi imtiyozlarni beradi, jumladan, har qanday tibbiy xizmat turi va o'zini-o'zi yuqori darajada tashkil etish uchun alohida ustuvor huquqlarni beradi. Biroq buning evaziga mazkur kasbdan, birinchi navbatda, boshqalarning manfaati uchun va keyingina - o'z manfaati uchun foydalanishni talab qiladi.

Bugungi kunda tibbiyat har qachongidan ko'proq shaxsiy faoliyat emas, ijtimoiy faoliyat hisoblanadi. U davlat va hukumat tashkilotlari va moliyalari doirasida ishlaydi, uning bilim va usullari davlat va xususiy kashfiyotlarga asoslanib, tabiatan ijtimoiy va biologik kasalliklar bilan kurashadi.

Tibbiyotning "ijtimoiy" tabiat haqida gap ketganda, jamiyat o'zi nima? degan savol tug'iladi. Shuni aytish kerakki, jamiyat va huquemat turli tushunchalar hisoblanadi. Har zamonda hukumat jamiyat manfaatlarini himoya qilishi kerak. Lekin huqumat

jamiyatni himoya qilgan taqdirda ham, u jamiyat nomidan ish olib borganda ham aslo jamiyat bo'la olmaydi.

Tibbiyot xodimlari jamiyat bilan turli xil munosabatlarga kirishadi, chunki jamiyat va jismoniy muhit bemorning sog'lig'iga ta'sir etuvchi muhim omil hisoblanadi. Tibbiyot kasb sifatida insonlar sog'lig'ini saqlash, sog'liqni saqlash sohasidagi ta'lim, atrof-muhitni muhofaza qilish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va qonun ijodkorligida muhim rol' o'ynaydi. Jahon tibbiyot uyushmasining Bemorlarning huquqlari to'g'risidagi deklaratasiyasida shunday deyilgan: "*Qonunchilik, hukumat qarori yoki boshqa biron bir tashkilot bemorga [uning] huquqlarini tan olmagan hollarda, shifokor ushbu huquqlarni ta'minlash yoki tiklash uchun barcha harakatlarni amalga oshirishi kerak*" [1]. Shifokor, shuningdek, jamiyatning cheklangan tibbiy resurslarini taqsimlashda hal qiluvchi rol o'ynashi va hech qachon bemorlarga tegishli bo'limgan xizmatlardan foydalanishlariga ruxsat bermasligi zarur.

Dunyoning barcha mamlakatlarida, jumladan, rivojlangan davlatlarda ham, sog'liqni saqlash xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj va talablar va ushbu xizmatlarni ko'rsatish uchun yetarli bo'ladigan resurslar o'rtaida sezilarli, kundan kunga o'sib borayotgan farqlar mavjud. Ushbu bo'shliqni bor resurslardan oqilona foydalanishni muvofiqlashdirish bilan to'ldirish mumkin. Sog'liqni saqlash tizimida mavjud resurslarni muvofiq ravishda taqsimlash uch darajada bo'lishi mumkin:

- yuqori («makro») darajada hukumat sog'liqni saqlashga jami byudjetning qandaydir qismini ajratadi; qaysi tibbiy xizmatlar bepul taqdim etilishini va qaysi birlari to'g'ridan-to'g'ri bemorlardan yoki ularning tibbiy sug'urtasidan olinishi belgilanadi. Sog'liqni saqlash byudjeti doirasida hukumat shifokorlar, hamshiralalar va boshqa tibbiyot xodimlarining ish haqiga; shifoxonalar va boshqa tibbiyot muassasalarining to'liq va joriy harajatlariga; tadqiqot, ta'lim va maxsus xizmatlariga qancha mablag'lar sarflanishini hal qiladi;

- institutsional («mezo») darajada hukumat shifokorlar, hamshiralalar, shifoxonalar, klinikalar, sog'liqni saqlash idoralari va boshqalarga hokimiyat resurslarining qanday taqsimlanishini belgilaydi: qanday xizmatlar ko'rsatilishi, xodimlar, jihozlar, xavfsizlik, ta'mirlash, kengaytirish va boshqalarga qancha joriy harajatlarni ajratish kerakligini belgilaydi;

- individual bemor ("mikro") darajasida, sog'liqni saqlash tizimi xodimlari (asosan shifokorlar) bemorda qaysi testlarni o'tkazish kerakligi, qaysi mutaxassisga murojaat qilish, shifoxonaga yotqizish zarurmi yoki yo'qligi to'g'risidagi qarorlarni qabul qiladilar; bemorlarga patentlangan dori darmonlar yoki umumiylor dori kerak bo'ladimi va hokazo masalalarni belgilaydilar. Hisob-kitoblarga ko'ra, shifokorlar sog'liqni saqlash tizimi

harajatlarining 80 foizigacha bo'lgan qismini nazorat qiladilar va bemorlar qaysi manbalardan foydalanish imkoniyatini tanlashda katta erkinlikka ega hisoblanadilar.

Har bir darajadagi qarorlar muhim axloqiy tarkibiy qismga ega, chunki ular ma'lum qadriyatlarga asoslanib, ham insonlar, ham butun jamiyatning salomatligi va farovonligiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Garchi shifokor resurslarni taqsimlashning barcha darajalarda qabul qilingan qarorlarda qatnashsalar-da, eng katta ishtirok etish hali ham mikro darajada saqlanib qolmoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, shifokorlar an'anaviy ravishda boshqalarning manfaatlari va ehtiyojlarini hisobga olmasdan, faqat bemorning manfaatlari yo'lida harakat qilishlari kerak - ularning rahm-shafqat, kompetentlik va mustaqillik kabi asosiy axloqiy qadriyatlari aynan shunga qaratilgan edi. Tibbiyot etikasiga ko'ra endi shifokor bosh roldan ikkinchisiga o'tib, bemorning mustaqilligini tan oladi va shuning uchun endi bemor har qanday resurslardan foydalanish yoki foydalanmasligi xohishi asosiy mezon bo'lib hisoblanadi.

Bugun adolat printsiipi barcha qabul qilingan qarorlarga o'z ta'sirini o'tkazuvchi muhim omilga aylandi. Bu resurslarni taqsimlashda ko'proq ijtimoiy yo'naltirilgan yondashuvni nazarda tutadi. Yangi yondashuvga ko'ra, shifokor va boshqa tibbiyot xodimlari nafaqat o'z bemoriga, balki qaysidir ma'noda boshqalar uchun ham javobgar hisoblanadi. Resurslarni taqsimlashda shifokorning roli haqidagi yangi tushunchalar ko'plab milliy tashkilotlarning axloq kodekslarida, shuningdek Jahon tibbiyot uyushmasining bemor huquqlari to'g'risidagi deklaratsiyada aks ettirilgan bo'lib, unda quyidagilar ko'rsatilgan: "*Muayyan davolanish uchun bir nechta bemorlar o'rtasida tanlov vaziyati vujudga kelganda, barcha bemorlar o'rtasida tanlov halollik asosida amalga oshirilishi kerak - buning uchun tibbiy mezonlar ishlab chiqilgan bo'lib, hech qanday kansitilishga yo'l qo'yilmasligi kerak*" [1].

*"Ushbu talabni amalga oshirishning yana bir usuli - bu hatto bemor talab qilganda ham shifokorning notejamkor va samarasiz muolajalardan voz kechishi hisoblanadi"* [1]. Misol uchun, antibiotiklardan ortiqcha foydalanish resurslarni isrof qilish va bundan tashqari zarar yetkazishning bиргина namunasidir; bundan tashqari, boshqa ko'plab an'anaviy terapiya usullari muayyan sharoitlarda foydasiz bo'lganligi ham isbotlangan. Ushbu samarasizlikni oldini olish uchun muayyan sharoitlarga qarab turli xil davolash usullarini klinik usulda qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Resurslarni behuda sarflanishiga yo'l qo'ymaslik uchun ham, har bir bemor uchun optimal davolash usulini tanlash uchun ham shifokor ushbu tavsiyalarga amal qilishi kerak.

Shifokorlar tomonidan resurslarni taqsimlash bo'yicha qabul qilinadigan qarorlardan biri – bu cheklangan resurslarga muhtoj bo'lgan ikki yoki undan ortiq

bemorlardan birini tanlash masalasi bo'lib, unga - reanimatsiya bo'limida qolgan bo'sh joy, transplantatsiya uchun organlar, texnologik radiologik tekshiruvlardan o'tkazish, qimmat dori-darmonlar va h.z. misol qilsa bo'ladi. Bu resurslarni nazorat qiladigan tibbiyot xodimi, qaysi bemorlar ulardan foydalana olishini va qaysilari foydalana olmasligini aniqlashi zarurligini bilsa-da, ba'zi bemorlar talab qilinadigan resurslardan foydalana olmay, og'ir azob chekishi yoki hatto vafot etishi ham mumkin.

Ba'zi shifokorlar va boshqa tibbiyot xodimlari resurslarni taqsimlashda yana bir qarama-qarshilikka duch keladilar – ushbu qarama-qarshiliklar barcha bemorlarga va shifokorlarning o'zlariga ham ta'sir qiladigan umumiyl tamoyillarni ishlab chiqilishiga sabab bo'ldi. Bunday holatlar shifokorlar ma'muriy lavozimlarni egallagan tashkilotlarda va qo'mitalar a'zolari bo'lgan shifoxonalarda yoki boshqa muassasalarda ro'y beradi. Shifokor va boshqa tibbiyot xodimlaridan ko'plari bunday sharoitda bemorlarining ehtiyojlaridan kelib chiqib xulosa chiqarishga harakat qilsalar-da, ba'zilari o'z lavozimididan foydalanib, o'z bemorlariga boshqalardan ko'ra ustunlik yaratishga harakat qilishlari mumkin.

Shifokor va boshqa tibbiyot xodimlari mayjud resurslarni taqsimlashda qanday rolni bajarishiga qaramasdan, ular bemorlarning ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli bo'limgan resurslarni kengaytirish uchun ham javobgar hisoblanadi. Bu barcha shifokorlar va boshqa tibbiyot xodimlarini o'z davlatidagi tibbiy assotsiatsiyalar, hukumat va boshqa qaror qabul qiluvchi organlar tomonidan talab etilayotgan ehtiyojlarni qondirish zarurligiga ishontirish uchun hamkorlikni talab qiladi va, ehtimol, bunday hamkorlik nafaqat mahalliy, balki global miqyosda ham mavjud bo'lgan muammolarni hal etish yo'lini ko'rsatadi.

## REFERENCES

1. Bemor huquqlari bo'yicha Lissabon deklaratsiyasi. 34-Jahon tibbiyot assambleyasi tomonidan qabul qilingan. Lissabon, Portugaliya, 1981 yil sentyabr-oktyabr (47-Bosh Assambleya tomonidan tuzatilgan. Bali, Indoneziya, 1995 yil sentyabr) //[http://www.e-stomatology.ru/star/info/2010/lissabon\\_declaration.htm](http://www.e-stomatology.ru/star/info/2010/lissabon_declaration.htm)
2. Jahon tibbiyot assotsiatsiyasining Jeneva deklaratsiyasi. Jahon Tibbiyot Assotsiatsiyasining 2-Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan, Jeneva, Shveytsariya, 1948 yil sentyabr// <https://webmed.irkutsk.ru/doc/order/genev1.pdf>
3. Sarvar Otamuratov. The role of Youth in society. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities ISSN: 2249-7315, Vol. 11, Issue 9, September 2021.
4. Otamuratov S. Specific Characteristics of Youth Social Group and its Place in Community Life. Periodica. Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities. Volume 11, October, 2022.

**MUNDARIJA | CONTENTS**

- 
- 42.** Khajimuratov, A. A. (2024). ZAMONAVIY TIBBIYOT KADRLARINI TAYYORLASHDA IQTISODIY BILIMLARNING ZARURIYATI. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 196-200.
- 43.** Atamuratova, F. S. (2024). SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA RESURSLARDAN FOYDALANISHNING AXLOQIY ME'YORLARI. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 201-204.
- 44.** Mukhamadjanov, S. S. (2024). PROSPECTS FOR DEVELOPMENT OF INVESTMENT ATTRACTIVENESS IN REGIONAL ECONOMY DEVELOPMENT. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 205-207.
- 45.** Sultanova, A. R. (2024). SOG'LOM TAFAKKUR – SOG'LOM TURMUSH GAROVIDIR. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 208-210.
- 46.** Парпиева, Н. Т., & Сафарова, Т. (2024). ВЫВЕДЕНИЕ ПРАКТИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА НА КАЧЕСТВЕННО НОВЫЙ УРОВЕНЬ ГОСУДАРСТВ ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКОГО РЕГИОНА В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 211-214.
- 47.** Rakhmonberdiev, I., & Aliyev, B. A. (2024). A SOCIO PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF HUNTINGTON'S THESIS ON ETHNIC MINORITIES AND THE CLASH OF CIVILIZATIONS. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 215-220.
- 48.** Eshpulatova, Z. B. (2024). TIBBIY XIZMATLARNI KO'RSATUVCHI IQTISODIY SUBEKTLARDA DAROMADLAR HISOBINI TAKOMILASHTIRISH ZARURATI. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 221-224.
- 49.** G'ulomova, R. (2024). O'ZBEKİSTONNING YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHI: MUAMMOLAR VA IMKONİYATLAR. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 225-229.
- 50.** Xolbekova, M. (2024). O'ZBEKİSTONDA XALQ TA'LIMINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY SIFAT BOSQICHLARI. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 230-232.
- 51.** Mirzohamdamov, A. R. (2024). "O'ZBEKİSTONDA 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA INSON KAPITALINI OSHIRISH YO'LLARI VA ISTIQBOLLARI. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 233-238.
- 52.** Muratova, D. (2024). O'ZBEKİSTONNING 2030 STRATEGIYASI: INSON SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 239-240.
- 53.** Парпиева, Н. Т., & Омонов, Ш. О. (2024). ВЛИЯНИЕ ДОСТУПНОСТИ ПИТЬЕВОЙ ВОДЫ И ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ НА СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ РЕСПУБЛИКИ В СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН-2030». *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 241-245.
- 54.** Norboev, T., & Akhmatova, M. (2024). SCIENCE, STRATEGIES AND THEIR PRACTICAL IMPLICATIONS IN THE CONSTRUCTION OF NEW UZBEKISTAN. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 246-250.
- 55.** Abduraxmanov, S. Z., & Alimova, S. G. (2024). TAMAKI MAHSULOTLARINING BIOLOGIK VA SHAXSIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI. *O'zbekiston – 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari Respublika konferensiyasi materiallari*, 251-255.